

Odilshoh BOBOKALONOV,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: o.o.bobokalonov@buxdu.uz ,<https://orcid.org/0000-0003-3781-0480>

Filologiya fanlari doktori, professor D.I.Djafarova taqrizi asosida

ZIDDIYAT KONTENTLI LEKSEMALAR VA ANTONIMLAR PARADIGMASIDAGI FARQLI JIHATLAR

Annotatsiya

Maqlolada til tizimi, leksema va ularning atrofidagi nutqiy hosilalarga dialektik qonuniyatlar talablari asosida fikr-mulohaza bildirilgan. Unda an'anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda ziddiyat kontentli leksemalar lison//nutq oppozitsiyasi yangi kommunikologik nazariya talablari asosida tilning nutqiy voqelanishida yangi yondashuv zaminida o'rganilganligiga ishora qilingan.

Kalit so'zlar: Til tizimi, leksema, nutqiy hosila, dialektik qonuniyat, ziddiyat kontentli leksema, paradigma, lison//nutq oppozitsiyasi, kommunikologik nazariya, diskursologik, personologik, lingvomadaniy va neyropsixologik xususiyatlari.

DISTINCTIVE ASPECTS IN THE PARADIGM OF LEXEMES WITH CONTRADICTION CONTENT AND ANTONYMS

Annotation

The article comments on the language system, lexemes and speech derivatives around them based on the requirements of dialectical laws. It is pointed out that, unlike traditional linguistics, lexemes with conflict content are studied on the basis of a new approach to the speech realization of the language based on the requirements of the new communicological theory.

Key words: Language system, lexeme, speech derivative, dialectical regularity, lexeme with contradictory content, paradigm, language/speech opposition, communicological theory, discursological, personological, linguistic, cultural and neuropsychological features.

ОСОБЕННОСТИ В ПАРАДИГМЕ ЛЕКСЕМ С ПРОТИВОРЕЧНЫМ СОДЕРЖАНИЕМ И АНТОНИМАМИ

Аннотация

В статье комментируются языковая система, лексемы и речевые производные вокруг них исходя из требований диалектических законов. Указывается, что в отличие от традиционного языкоznания лексемы противоречивого содержания изучаются на основе нового подхода к речевой реализации языка, основанного на требованиях новой коммуникологической теории.

Ключевые слова: Языковая система, лексема, речевой производный, диалектическая закономерность, лексема противоречивого содержания, языково-речевая оппозиция, коммуникологическая теория, дискурсологические, персонологические, лингвистические, культурные и нейропсихологические особенности.

Kirish. Antonimlar (anti- va yunoncha onoma — ism, nom) deganda leksema va ular atrofidagilarining 3 turi ajratib ko'rsatilgan. Bular: 1) leksik antonimlar (Mas. baland — past, uzun — qisqa); 2) affiks antonimlar (suqli — suvsiz); 3) sintaktik antonimlar (yuz - bashara). Xuddi shu joyda "antonimlar ("zid ma'noli so'zlar") — grekcha anti — „zid“, „qarama-qarshi“ onoma yoki onyma — "nom" degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, ya'ni ma'nosini bir-biriga zid bo'lgan so'zlar antonim deyiladi" deb ta'rif beriladi.

Shuningdek, "Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanib ma'no kengaytiradi yoki yangi ma'no ifodalaydi: tunu kun (har doim - ma'noviy o'zgarishi) hosil bo'lishiga ishora berilgan. Chunonchi, ko'p ma'noli so'z o'zingin har bir ma'nosini bilan ayrim so'zlarga sinonim bo'lishi mumkinligi (xafa so'zi bir o'rinda xursand so'ziga antonim bo'lishi yoki qattiq yer — yumshoq yer; baxil (xasis) odam — saxiy odam), bundan tashqari unga sinonim qatorda shod, xushvaqt kabi so'zlarga antonim bo'la olishi misol keltirilgan : baxil — yumshoq, saxiy; tez — sekin, og'ir; chiroli — xunuk, badbashara, badburush. Demak, bir so'z sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlarning har biri bilan atnonim bo'la oladi: Antonimik juftlar ko'chma ma'no ifodalashi mumkin: tunu kun (ravishga ko'chgan), achchiq-chuchuk (otga ko'chgan). Antonim badiiy nutqda qo'llanib tazod yaratish uchun xizmat qildi: yaxshining ehsoniga yomonning boshi og'rir. Antonimlarni kel — kelma, bor — borma kabi birliklardan farqlamoq kerak, bu birliklar fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shaklidir. Fransuz tilida ham ne...pas, ne jamais, ne rien, ne plus inkor yuklamalari ham bo'lishli/bo'lishsizlik ma'nolarini shakllantiradi. Masalan : je parle – je ne parle pas kabi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda antonimlar, leksik-frazeologik antonimlar bilan birga leksik antonimiya, frazeologik antonimiya kabi turlarga ajratiladi:

a) leksik antonimiya: yaxshi-yomon, baland-past, oq-qora, issiq-sovuq kabi.

b) frazeologik antonimiya: boshga ko'tarmoq – yerga urmoq, boshi osmonga yetdi – qovog'idan qor yog'adi, yerga ursa, ko'kka sakraydi - qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi;

v) leksik-frazeologik antonimlar: xafa – boshi ko'kka yetdi, og'zi qulog'iga yetdi, terisiga sig'madi kabi.

Ba'zi bir adabiyotlarda antonimlarni tasniflashda ularning to'la va yarim (chala, to'liqsiz) kabi turlari ham mayjudligi aytildi. R. Sayfullayeva va boshqalar tonomidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida antonimlarni tasniflashda ularning qanday o'zakdan tashkil topganligi ham e'tiborga olingan: Antonimlar strukturasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: har xil o'zakli antonimlar: katta – kichik, kirmaq - chiqmoq, muhab - batnafrat; bir xil o'zakli antonimlar: madaniyatl - madaniyatsiz, aqli-aqlsiz, ongli-ongsiz [5].

Antonimlarni, xususan, quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. O'zaro antonimik munosabatga kirishgan so'zlar tub so'zlardan iborat bo'ladi: oq - qora, yaxshi – yomon, yer – osmon, do'st – dushman, baland – past kabilari. 2. Birinchi komponenti tub so'z bo'lgan, ikkinchi komponenti esa yasama so'zdan iborat antonimlar: xunuk-chiroli, shirin-bemaza, ahil-noahil, to'g'ri-noto'g'ri, zaif-baquvvat kabilari. 3. Ikki komponenti yasama so'zlardan yasalgan antonimlar: rostgo'y - yolg'onchi, kuchli - kuchsiz, mazali - bemaza, baquvvat - bequvvat, yorus'lik - qorong'ulik kabilari. 4. Ikki komponenti qo'shma so'zlardan yasalgan antonimlar: mehnatsevar - ishyoqmas, ertapishar - kechpishar kabi.

5. Ikki qismi juft so‘zlardan tashkil topgan antonimlar: yosh-yalang - qari-qartang, o‘yin-kulgi – dard-alam. 6. Ikki qismi takroriy so‘zlardan tashkil topgan antonimlar: sekin-sekin – tez-tez, ko‘p-ko‘p – oz-oz, yig‘lab-yig‘lab – kulib-kulib, katta-katta – kichik-kichik kabilar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasash usul va vositalari ko‘p. Tildagi har bir hodisaning yuzaga kelishi tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Yusuf Xos Hojib ijodi bo‘yicha kuzatish olib borgan S. Ashirboyev va M. Rahmatovlar allomaning omonim, sinonim va antonimlardan ham unumli foydalanganligi: at (hayvon) —at (ism) —at (otmoq); achylg‘ (achchiq) — achylg‘ (toza) kabi omonimlar, yaruq-qaraqu, yaxshi-yaman, yumshaq-qatyg‘; achylg‘-tatig‘; beduk-qodu kabi antonimlar, achig‘-siling (toza), tushar-pabuz-yersel kabi omonimlarni qo‘llaganligi haqida ma’lumot beradilar[1].

Tadqiqotlarda antonimlar yasalishining uch yo‘li mavjud:

1. Tilning lug‘at tarkibida qarama-qarshi ma’noli so‘zlarning azaldan mavjud bo‘lishi: issiq - sovuq, shirin - achchiq, katta - kichik, keng - tor, kecha - kunduz, yaxshi - yomon kabilar. 2. So‘z yasalishi qoidalari usuliga ko‘ra antonimiyani vujudga keltirishda ikki holat kuzatiladi: a) tub so‘zga sifat turkumi doirasida amal qiluvchi -li va -siz, ba- va be-, bar- va -dor, -no-affikslarini qo‘shish orqali: kuchli - kuchsiz, jonli - jonsiz, baquvvat - bequvvat, batartib - betartib, barqaror - beqaror, vafodor - bevafo, mazali - bemaza, haq - nohaq kabilar yasaladi; b) leksik-semantik jihatdan o‘zaro qarama-qarshilik munosabatida bo‘lgan so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish yo‘li bilan: rostgo‘y - yolg‘onchi, do‘stona - dashmanlarcha, og‘irlashmoq - yengillashmoq, kengaymoq - toraymoq, oqlamoq - qoralamoq kabilar. 3. So‘z o‘zlashtirish natijasida antonimlar yuzaga keladi: do‘st (tojikcha) – dashman (tojikcha), quvonch (o‘zbekcha) – g‘am (arabcha), band (tojikcha) – bo‘sh (o‘zbekcha), mudofaa (arabcha) – hujum (arabcha), import (ruscha) – eksport (ruscha), badxo‘r (tojikcha) – xushxo‘r (tojikcha), assimiliyatsiya (ruscha) – dissimiliyatsiya (ruscha), analiz (ruscha) – sintez (ruscha), maksimum (ruscha) – minimum (ruscha), manfiy (arabcha) – musbat (arabcha) va boshqalar.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda antonimlarning turlari haqida har xil qarashlar mavjud. Darslik va qo‘llanmalarda, avvalo, antonimiya hodisasining tilning qaysi sathida yuzaga kelayotganligiga qarab 1) lug‘aviy antonimiya, 2) grammatik antonimiya kabi turlari qayd etiladi [11].

Akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida: yer-osmon (ot), uzun - qisqa (sifat), ko‘p - oz (ravish), keldi - ketdi (fe’l) kabi juftliklar berilgan. Antonimik juftlik hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi, fe’llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmasligi ta’kidlangan [12].

Ilmiy munozara

Zidlanish tamoyili juda qadimdan buyon diqqat markazida bo‘lgan. Zidlanishlarga bizning ajdodlarimiz Abu Nasr Farobi, Jaloliddin Rumiy va boshqalar katta ahamiyat bergenlar, xususan, Jaloliddin Rumiyning ta’kidlashlaricha, har qanday “ashyo”ning qimmati zidi bilan ayon bo‘ladi, zidi bo‘limgan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nuring oshkor bo‘lishi uchun qorong‘i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi. Odam ro‘parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir‘avnning, Ibrohim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo‘lishini bunga misol qilib keltirish mumkin. Ana shunday zidlanishlar tilimizda ham o‘z ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning zidi xayolimizga keladi. Masalan, oq - qora, uzun - qisqa (kalta), baland - past, dono – ahmoq [12].

Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida antonim va antonimiya tushunchalari chalkashroq izohlangan: “O‘zaro qarama-qarshi (zid) ma’noli so‘zlar antonimlar deyiladi. So‘zlarning bunday munosabata bo‘lish hodisasi antonimiya deyiladi: yaxshi - yomon, baland - past, oz - ko‘p, yoz - qish, xursand - xafa, olmoq - bermoq, kelmoq - ketmoq kabi” [15]. Darslikda antonimiya hodisasi asosida birdan ortiq so‘zlar o‘rtasidagi zidlik munosabati yotishi qayd etilar ekan, ko‘p ma’noli so‘z har bir ma’nosini bilan boshqa so‘zlarga antonim bo‘la olishi ko‘rsatiladi va antonim va antonimiya tushunchalari o‘rtasidagi farqiyat quyidagicha ko‘rsatiladi: “Antonimiyada o‘zaro zidlik bo‘lishi aytildi, zero zidlikda esa biri ikkinchisini inkor etish hodisasi ham seziladi. Lekin bu ikki hodisa tamoman bir-birdan farq qiladi. Tasdiq va inkor etish tilda bor hodisa. Masalan: olmadi deyilganda bergenlik ifodalanmaydi, balki shu harakat (olish)ning o‘zi inkor etiladi. Bu esa antonimiyani yuzaga keltirmaydi” [15].

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida antonimlar quyidagicha ta’riflangan: “Til birliklarining o‘zaro zid munosabatdagi ma’nolarni anglatishi asosida guruhanishiga antonimlar deyiladi” [6]. H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa antonimlar tavsifi “Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma’no anglatishidir: oq va qora, qalin va yupqa kabi” tarzida izohlanadi. Demak, qarama-qarshi ma’no bildiradigan so‘zlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi: katta-kichik, uzoq-yaqin, chap-o‘ng, sog‘aymoq-kasal bo‘lmoq, muhabbat-nafrat kabi” tarzida beriladi [6]. H.Jamolxonov antonimlarning yuzaga kelish sabablari haqida fikr yuritganda, asosan, leksik antonimlarni ko‘zda tutishi seziladi. Olim antonimiya hodisasining, asosan bir turkum doirasida yuz berishini ta’kidlaydi va o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalarning ma’lum kontekst ichida so‘zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishi kontekstual antonimlarni hosil qilishini misollar asosida tahlil etadi.

Xullas, antonimiyada uch xil belgi bor: 1) shakliy (fonetik strukturasi) jihatdan har xillik; 2) ma’nosii jihatdan har xillik; 3) ma’nodagi o‘zaro zidlik. Ana shu oxirgi belgi antonim so‘zni o‘zaro birlashtiradi, ya’ni qarama-qarshi ma’noli birlik qiladi” [13].

Antonim so‘zlardan ziddiyat kontentli leksemalarning farqi shundaki, bunda til sathidan tashqarida yuzaga chiqadigan nutqiy holat bilan aloqador lingvistik vaziyatlarga alohida diqqat qaratiladi. Ziddiyat kontentli leksemalarning kommunikologik, diskursologik, personologik, lingvomadaniy va neyropsixologik xususiyatlari aniqlanadi. Bu sohalarning uzviy aloqadorligida ziddiyat kontentli leksemalarning diskurs-mulqoqt va lingvokognitiv ahamiyati paradigmalar o‘rganiladi. Masalan, nutq yadrosidan joy oladigan alohida so‘z turkumlariga mansub modal, tasdiq-inkor, undov, taklif xitob so‘z-gaplar qurshovi va periferiyalarida ziddiyat kontentlari uchrashimi hisobga olsak, bunday leksemalarning chegaralari kengayib borishini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, jadvalga e’tibor beramiz :

Nutq yadrosidagi leksema	Qurshov va periferiyalar gradatsiyasi	Iyerarxik usuvchanlik
Ha	Ha albatta → Balli → Barakallo → Ma’qul → Rost → To‘g‘ri → Shunday → Tushunarli// Baraka toping → Haq gap → Adashmadingiz → To‘g‘risi shu → Rost aytasiz → To‘g‘ri gapirdingiz → Gapingiz haq // To‘g‘ri qaror → Alhamdulilloh shunday → Alloh sizdan rozi bo‘lsin → Boringizga shukr// To‘g‘risi ham shunday → Boshqa gap bo‘lishi mumkin emas.	Tasdiq (dan) + ma’qullah + olqishlash + qo‘llab-quvvatlash + ijobiy munosabat + shukronalik +

		qat'iylik (kacha)
Yo‘q	Yog‘e → Bunaqamas → Bilmasam → Tushunmadim // Ha deyolmayman → Nega endi men ? → Xo‘p deyishim kerakmi ? // Bu savol menga emas → Buni o‘ylab ko‘rish kerak	Inkor (dan) – istihola + rad etish + bo‘yin tov lash (gacha)

Jadvaldagi Ha va Yo‘q yarusidan tashqaridagi nutqiy hosilalar vaziyat talabi bilan insonga ta’sir uyg‘otuvchi ruhiy holat bilan aloqador bo‘lib, nutq so‘zlovchisining ong-tafakkuri, axloq-odobi, tarbiya darajasi, diskurs monosabatga tayyorligi va xabardorligi kabi omillar bilan aloqador hisoblanadi. Vaziyatni baholash, yumshatish, keskinlashtirish va fors-major holatlarning oldini olishda ziddiyat kontentli leksemalar, nutqiy konfiguratsiyalar [Tasdiq (dan) + ma’qullah + olqishlash + qo’llab-quvvatlash + ijobiy munosabat + shukronalik + qat’iylik (-kacha)] paradigmalar bilan bir qatorda [Inkor (dan) – istihola + rad etish + bo‘yin tov lash (-gacha)] bo‘lgan lisoniy ma’nolar inson miyasida tizimiyl jihatdan o‘rnashib olgan bo‘ladi hamda shu bilan bir qatorda neyropsixolingvistik holat bilan baholanadi.

Xulosa. Empirik yondashuvda har bir birlik alohida-alohida tekshiriladi. Manbani o‘rganishning har ikki bosqichi ham birday muhim, ikkinchisini birinchisiz, birinchisini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularни bir-biridan uzish, qaramaqarshi qo‘yish mumkin emas. Bilihning ikki zaruriy bosqichi ham cheklangan. Ya’ni empirik bilim nazariy xulosalar uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Nazariy tilshunoslik har qanday birlikning mohiyati uning boshqa sistemadoshlariga munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan metodologiyaga tayanadi. Xulosa qilib aytganda, ziddiyat kontentli leksemalar lison/nutq oppozitsiyasida kommunikologik, personologik, diskursologik va neyropsixologik hodisa sifatida grammatik qobiqdan tashqarida namoyon bo‘ladi. Ularning leksik-semantik va formal-funksional xususiyatlari keng qamrovli bo‘lib, dialektik qonuniyatlar o‘lchamida o‘rganilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Аширбоев С., Раҳматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. Тошкент, 2003. Б. 16-17.
2. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN 978-620-6-15214-9.
3. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Талқин, 2005. Б. 170.
4. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. –Тошкент: «Фан» нашр. 1994 8-24:-28-64; 177-248 б.
5. Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Бокиева Г. Ҳозирги ўзбек тили. (Кириш, Фонетика-фонология, Графика, Талаффуз ва имло, Лексикология, Фразеология, Лексикография). Дарслик. -Тошкент, 2005. Б. 106.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. Б. 120.
7. Begimova G. J. Leksik-semantik sath va uning birligi masalalari talqini//Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022, № 3) ISSN 2181-1709 (P)
8. Bobokalonov P. R. Kanonik modelli fransuzcha-o‘zbekcha gaplarning sistem-struktural, lingvodidaktik va komparativ tahlili, dissert. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro, 2023. -4-134 b.
9. Bobokalonov R. R. O‘zbek tilida semantik-funksional gaplar talqini, Toshkent: « Fan » nashriyoti. 2006, -3-127 b.
10. Bobokalonov R. R. O‘zbekcha-fransuzcha semantik-funksional gaplarning farqlanishi va kommunikativ neyropsixolingvistik tadqiqotlar. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, Buxoro -2022, 4, pp. 07-109.
11. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Ma’naviyat, 2011. -180-181 б.
12. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. Б. 78-79.
13. Rajabov F. Pardayeva B. Tursunov B. Antonimlarning ona tili darsliklari va qo‘llanmalaridagi talqini// Международный научный журнал № 6 (100), часть 3 «Новости образования: исследование в XXI веке» январь, 2023 г.
14. Sayfullayeva R. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmatik shaxs. Monografiya, GlobeEditie. Moldova Respublikasi, Kshenyov, 2023. 3-149-betlar ISBN: 978-620-0-64878-55.
15. Shoabdurahmonov Sh.Sh. O‘zbek lili dialektologivasi. - T.: «O‘qituvchi», 1978. 43-b.
16. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
17. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.
18. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.
19. Ilxomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of “historical memory” in linguistics and the history of its socio-cultural formation." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.3 (2022): 169-173.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
21. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In Конференции. 2021.
22. Ilxomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o‘zbek frazeologiyasida “tarixiy xotira” ni ifodalashda til o‘yinlarini o‘zaro ta’siri (ahamiyat).” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.1 (2021): 255-259.